

I



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

2023 - yil 3 - noyabr

387-10-0-F/23

Toshkent viloyati hokimiligi

Viloyat hokimining ayrim farmoyishlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

Toshkent viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" Davlat unitar korxonasining 2023-yil 31-oktabrdagi 04/3356-sonli xatini inobatga olib, Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 30-oktabrdagi 367-10-0-F/23-sonli, 370-10-0-F/23-sonli hamda 371-10-0-F/23-sonli farmoyishlariga o‘rnatilgan tartibda o‘zgartirish kiritish lozimligi sababli, O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi va "Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida"gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan:

1. Viloyat hokimining 2023-yil 30-oktabrdagi 370-10-0-F/23-sonli farmoyishining 1 va 3-bandlari mos ravishda quyidagicha tahrir qilinsin:

Viloyat mahalliy budjetining 2023-yil 3-chorak yakuni bilan shakllangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan viloyat hokimligi huzuridagi "Harbiy ma'muriy sektor jamg'armasi"ga mablag' ajratish maqsadida viloyat hokimligiga:

Viloyat hokimligi ishlar boshqarmasi (A.Mixmanov) ajratilgan mablag'ni "Harbiy ma'muriy sektor jamg'armasiga"ga yo'naltirish orqali belgilangan vazifalarni amalga oshirsin, viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" davlat unitar korxonasi (E.Abduvaliyev) ajratilgan mablag'larni belgilangan tartibda maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlasin.

2. Viloyat hokimining 2023-yil 30-oktabrdagi 371-10-0-F/23-sonli farmoyishining 1 va 3-bandlari mos ravishda quyidagicha tahrir qilinsin:

Viloyat mahalliy budjetining 2023-yil 3-chorak yakuni bilan shakllangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan viloyat hokimligi huzuridagi "Harbiy ma'muriy sektor jamg'armasi"ga mablag' ajratish maqsadida viloyat

hokimligiga:

Viloyat hokimligi ishlar boshqarmasi (A.Mixmanov) ajratilgan mablag‘ni “Harbiy ma’muriy sektor jamg‘armasiga”ga yo‘naltirish orqali belgilangan vazifalarni amalga oshirsin, viloyat hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi (E.Abduvaliyev) ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlasin.

3. Viloyat hokimining 2023-yil 30-oktabrdagi 367-10-0-F/23-sonli farmoyishining 1 va 3-bandlari mos ravishda quyidagicha tahrir qilinsin:

Viloyat mahalliy budjetining 2023-yil 3-chorak yakuni bilan shakllangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan viloyat hokimligi huzuridagi “Obod qishloq” jamg‘armasiga yo‘naltirish maqsadida viloyat hokimligiga:

Viloyat hokimligi ishlar boshqarmasi (A.Mixmanov) ajratilgan mablag‘ni “Obod qishloq” jamg‘armasiga yo‘naltirish orqali belgilangan vazifalarni amalga oshirsin, viloyat hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi (E.Abduvaliyev) ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlasin.

4. Mazkur farmoyish ijrosini ta’minlash viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abdullayev zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi



Z.Mirzayev